

Surxondaryoda “Yangi O‘zbekiston yoshlari, birlashaylik!” shiori ostida yoshlar forumiga start berildi



Surxondaryoda “Yangi O‘zbekiston yoshlari, birlashaylik!” shiori ostida yoshlar forumiga start berildi

“Yangi O‘zbekiston yoshlari, birlashaylik!” shiori ostida o‘tkazilayotgan “Islohotchi yoshlar” forumi mamlakatimiz yoshlarini Termiz shahridagi “Amudaryo” bolalar sog‘lomlashtirish oromgohida birlashtirdi.

9-10 apreľ kunlari bo‘lib o‘tishi rejalashtirilgan forum doirasida turli ko‘rik-tanlovlar, ko‘ngilochar dasturlar, intellektual salohiyatni oshiruvchi loyihalar, sport o‘yinlarini o‘tkazish maqsad qilingan.

“Islohotchi yoshlar” forumining tantanali ochilish marosimi bugun, 9 apreľ kuni soat 13:00da Termiz shahridagi Yoshlar markazida bo‘lib o‘tadi. Soat 20:00dan “Amudaryo” bolalar oromgohida sport-sog‘lomlashtirish va madaniy hordiq chiqarish

tadbirlari boshlanadi.